



TALABALARNING KASBIY-IJODIY KOMPITENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI

Qodirov X.O.

TATU Farg'ona Filiali dotsenti

Mavlonova D.Sh.

TATU Farg'ona Filiali assistenti

Tayanch so'zlar: shaxsni takomillashtirish, intellekt tuzilmasi, talabalik, konsentratsiya, o'qituvchi maqomi

Ключевые слова: совершенствование личности, интеллектуальный состав, студенчество, концентрация внимания, статус учителя

Key words: personality improvement, intellectual structure, studentship, concentration, teacher's status

Inson – murakkab dinamik tuzilishga egadir. U butun umri davomida o'zgaradi, ammo u bilan yoshlik davrida sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqiqatda ahamiyatli. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek: «Biz inson hayotidagi 16 yoshdan 22-23 yoshgacha bo'lgan davrni eng hal qiluvchi deb hisoblaymiz. Bunda aynan alohida tasavvurlar izchilligining davri yakunlanadi va agar ularning barchasi bo'lmasa, unda insonning fikrlash tarzi va uning xarakteridagi muayyan yo'nalishning ustuvorligini hosil qilish uchun ahamiyatli qismi yetarlicha keng bir tarmoqqa guruhlanadi». Shuning uchun ham pedagogning roli bu qadar muhim bo'lib, uning vazifasi bu davrni talabalarda mukammallikka intilishni uyg'otish uchun foydalanishdan iborat bo'ladi.

Shaxsni takomillashtirish – insoniyat ma'naviy hayotining azaliy muammosidir. Bu muammo ustida barcha davrlarning atoqli namoyondalari fikrlaganlar, ular orasida Sokrat, Platon, Aristotel, Mark Avreliy, J.J.Russo, Gelvesiy, Didro, G.Gyote, F.Bekon, I.Kant, Gegel, A.Kamyu, Sartr, Xaydegger, N.A.Berdyayev, F.M.Dostoyevskiy, V.V.Zenkovskiy, I.A.Ilin, V.O.Klyuchevskiy, N.I.Lobachevskiy, M.V.Lomonosov, N.O.Loskiy, B.C.Solovyev, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy, P.A.Florenskiy, S.L.Frank va boshqa buyuk mutafakkirlar, pedagoglardir.

Shaxsni takomillashirish atamasi pedagogikadagi tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash kabi asosiy tushunchalar bilan bevosita o'zaro bog'liqlikda yotadi.

Uzoq vaqt davomida mazkur ilmiy atamalar faqatgina maktab va avvalo maktab yoshidagi o'quvchilarga taalluqli muammolarga aloqador ravishda foydalanildi. Ijtimoiy-psixologik va yoshga oid kategoriya sifatida talabalik muammosi B.G.Ananyevning psixologik maktabi tomonidan qo'yilgan. Ammo boshqa mualliflarning ishlarida ham mazkur muammo bo'yicha kuzatishlarning katta empirik materiallari, eksperimental va nazariy umumlashtirishlarning natijalari to'plangandir.

Bu mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish sohasidagi muhim qadam bo'ldi, chunki jamiyatning alohida kategoriyasi sifatida o'zining maxsus psixofiziologik ma'lumotlari bilan talabalikning yuzaga kelgan dastlabki tavsifi talabalikning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini qo'zg'atish va rag'batlantirishning samarali metodlari, usullarini izlash va rasional foydalanish zaruratini ko'rish imkonini berdi.

«Talabalik – alohida ijtimoiy kategoriya bo'lib, oliy (institut yoki universitet) ta'lim muassasasiga tashkiliy birlashtirilgan insonlarning o'ziga xos birligidir». Bu tarixiy ijtimoiy-kasbiy kategoriya XI-XII asrlarda dastlabki universitetlarning yuzaga kelishi bilan paydo bo'lgan.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan talabalik yuqori ta'limiy daraja, bilishga oid motivatsiyaning yuqoriroq darajasi bilan farqlanadi. Shu bilan birga – ko'proq ijtimoiy faollik, yetarlicha uyg'un ijtimoiy va intellektual yetuklikning umumiyligi bilan tavsiflanuvchi birlikdir. Bu xususiyatni inobatga olish o'qituvchining har bir talabaga – pedagogik muloqot bo'yicha hamkorga, o'qituvchi uchun qiziqarli shaxsga hurmatli munosabat asosida yotishi kerak. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvga ko'ra talaba o'qitishning passiv ob'yekti sifatida emas, balki pedagogik muloqotning faol sub'yekti sifatida qaraladi. Talabalikka psixofiziologik tavsif berib, yoshlikning – 17 yoshdan 25 yoshgacha erta yetuklikning alohida davri ekanligini ta'kidlash lozim. Mazkur davr, o'z navbatida V.Selivanovning fikriga ko'ra, ikki davrga ajratiladi: 17 yoshdan 19 yoshgacha (odatda, 1 va 2 bosqich) hamda 19, 20 yoshdan 25 yoshgacha (yuqori bosqich talabalari).

«Ko'pgina tadqiqotchilar insonning rivojlanishi jarayonini bu yoshda funksional ishlash qobiliyati va samaradorligining uzluksiz o'sib borishi, biror-bir pasayish va funksiyalarning barqarorsiz progressiv harakatlanish dinamikasi sifatida tavsiflaydilar».

Bu vaqtda egallanadigan bilimlarni tartibga solish, to'plash, saqlash, mantiqiy qayta tasniflash, ularni amaliy faoliyatga ko'chirish jarayoni jadal sodir bo'ladi.

B.G.Ananyevning psixologik maktabining ma'lumotlariga ko'ra, intellektning tuzilmasi butun yosh davrida rivojlanish jarayonida emas, balki talabalik yosh davrida ham dinamik ravishda o'zgaradi. 18-21 yoshda turli xil psixik funksiyalarning



korrelyasion guruhi (xotira, tafakkur, idrok, diqqat) aloqalar zanjiri ko‘rinishida xizmat qiladi, 22-25 yoshda esa ikki - mnemologik (xotira – tafakkurning yagona tuzilishi) va diqqat omili markazlar atrofida guruhlanadigan murakkab tarmoqda kompleks hosil bo‘ladi.

Oliy ta‘lim muassasadagi ta‘lim olish intellektning tuzilmaviy hosil bo‘lishiga ko‘maklashib, shu bilan bir vaqtda uning ishlashining xususiyatlariga asoslanadi. Shunday qilib, talabalik yillarida diqqat omilining roli o‘sishi ko‘rsatilgan (18-21 yoshda u korrelyasion aloqalarning soni, kuchi bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinni, 20-25 yoshda esa ikkinchi o‘rinni egallaydi). 18-21 yosh davri xotira hajmining eng kichik hajmi bilan, uning konsentratsiyasi darajasining oshishi bilan tavsiflanadi. 22 yoshdan boshlab diqqatning barqarorligining kuchayishi oshadi. Bu o‘quv jarayonida talabalarning diqqatlarini tashkil etish ustida maqsadga muvofiq ishlashning muhimligi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Tafakkur va xotiraning rivojlanishi yaqin va bilvosita bog‘liqdir. 19-24 yoshda xotira funksiyalari mantiqiylaridan ilgarilaydi, 20, 23, 25 yoshda esa aksincha holat kuzatiladi. 22 yoshda va 26 yoshda ikkala funksiyalarining sezilarli pasayishi kuzatiladi. 28-29 yosh davri fikrlash funksiyalarining nisbatan barqarorlashishi bilan tavsiflanadi.

B.G.Ananyevning psixologik maktabi tadqiqotchilari tomonidan olingan ma‘lumotlar talabalik yosh davri – bu intellektning murakkab tasniflash vaqti bo‘lib, u juda individual va variativligidan guvohlik beradi. Intellektning yoshlikda rivojlanishi esa, A.Yu.Kozyreva. ta‘kidlaganidek, ijodiy qobiliyatlar bilan bog‘liqdir. Yuqorida bayon etilgandan oliy ta‘lim muassasasi o‘qituvchisining o‘quv faoliyatining sub’yekti sifatida talabani shakllantirishdagi mas’uliyatli roli aniq namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot ishimizning vazifalariga ko‘ra bizni ko‘proq qiziqtiruvchi talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi zamonaviy o‘qituvchining idealini ko‘rish to‘g‘risidagi masalaga bevosita bog‘liq bo‘lib, uni turli davrlarda turlicha izohlaganlar. O‘qituvchining jamiyatdagi ahamiyati to‘g‘risida barcha davrlardagi faylasuflar, pedagoglar, buyuk insonlar yozganlar. Bunda ular alohida shaxs tavsiflarini ajratishga intilganlar, ularning fikrlariga ko‘ra bu shaxs tavsiflarisiz ta‘lim va tarbiya ishida muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida yopiq imtiyozli jamoani tashkil etgan ruhoniylar o‘qituvchilar bo‘lganlar. Qadimgi Gresiya davlatlarida o‘qituvchilar etib eng tajribali va hurmatga ega fuqarolar, faylasuflar va sofistlar tayinlanganlar. Suqrot o‘qituvchining ishini farzandni dunyoga keltirish san’ati bilan qiyoslagan, chunki tarbiyalanuvchi o‘qituvchi o‘zining ikkinchi tug‘ilganligi bilan qarzdor. Rim pedagogi Kvintilian yuqori ma‘lumotli inson va bolalarni sevadigan, ularni o‘rganadigan inson bo‘lishi mumkin deb yozgan. O‘qituvchi bosiq, odobli



bo'lishi, maqtov va jazolashning me'yorini bilishi kerak bo'lgan. O'rta asrlardan o'qituvchilarni universitetlar tayyorlay boshladi. Bo'lajak o'qituvchilarga bolalarni maktabda o'qitishning muvaffaqiyati qat'iylik va dangasa hamda quloqsizlarni jazolashni bilishga bog'liqligi to'g'risidagi fikrni singdirganlar. Universitetni bitirishda o'qituvchiga novdani taqdim etishgan.

Adabiyotlar:

1. Margaret Mead. Culture and Commitment. 1970.
2. Martina Blašková. Influencing Academic Motivation, Responsibility and Creativity. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*. 159 (2014). – P. 415-425.
3. Mendus S. Toleration // *Encyclopedia of Ethics*. – London, 1992. – P. 1251.
4. Mike A. Males. Kids And Guns. Common Courage Press, 2001.
5. Norman Jackson. Developing Students' Creativity through a Higher Education. Conference // *The Cultivation of Creativity in University Students: International Symposium*. – Macao Polytechnic Institute. November, 2013.
6. Robyn Philip B.A., GradDip.Ed., M.P.E.T. M.A. Caught in the Headlights: Designing for Creative Learning and Teaching in Higher Education. Submitted in fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. Queensland University of Technology. 2015.
7. Sayfullayev B., Isakulova N. Kasbiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015. – 250 b.
8. The Assisi Declarations, 1999. In *Cultural and spiritual values of biodiversity*, UNEP, Intermediate Technology Publications. – P. 604-607.
9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2011. – 420 b.
10. Sirojiddinova Iroda Mahammadovna disertatsiya oliy ta'lim muassasi talabalarida kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. 2020-yil 12-14 betlar

РЕЗЮМЕ

Shaxsni takomillashirish atamasi pedagogikadagi tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash kabi asosiy tushunchalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan atama bo'lib insoniyat ma'naviy hayotining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan talabalik yuqori ta'limiy daraja, bilishga oid motivatsiyaning yuqoriroq darajasi bilan farqlanadi. Shu bilan birga – ko'proq ijtimoiy faollik, yetarlicha uyg'un ijtimoiy va intellektual yetuklikning umumiyligi bilan tavsiflanuvchi birlikdir. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning usul-vositalari bayon etilgan

РЕЗЮМЕ

Термин «развитие личности» представляет собой термин, непосредственно связанный с такими базовыми понятиями, как образование и самообразование в педагогике, и считается одним из важных вопросов духовной жизни человечества. В социальном и психологическом отношении студентов отличает более высокий образовательный уровень и более высокий уровень мотивации к обучению. В то же время это единица, характеризующаяся большей социальной активностью, достаточно гармоничной социальной и интеллектуальной зрелостью. В статье описаны методы развития профессиональных и творческих компетенций студентов.

SUMMARY

The term "personal development" is a term directly related to basic concepts such as education and self-education in pedagogy and is considered one of the important issues of the spiritual life of mankind. Socially and psychologically, students are distinguished by a higher educational level and a higher level of motivation to learn. At the same time, it is a unit characterized by the generality of more social activity, sufficiently harmonious social and intellectual maturity. This article describes the methods of developing the professional and creative competencies of students.